

## GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSH LAR QALBIDA VATANPARVARLIK TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI

A.Xolboyev

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
2-son davolash ishi fakulteti 1 kurs talabasi

S.E.Ibroximova

Toshkent farmatsevtika instituti  
Xalqaro va qo'shma ta'lim fakulteti  
1 kurs 101 B guruh talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14406784>

### Annotatsiya

Maqolada globallashuv jarayonida yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda hamda ular qalbida milliy g'urur, iftihor tuyg'ularini rivojlantirishda badiiy adabiyotning o'rni ochib berilgan. Shuningdek, o'zbek adiblari asarlarida millat ertasi bo'lgan yoshlar ta'lim-tarbiyasi, o'dob-axloq, milliy o'zlikni anglash, ma'naviyat-ma'rifat tushunchalarining keng targ'ib etilishi tahlilga tortilgan.

**Kalit so'z:** ta'lim-tarbiya, qadriyat, an'ana, ma'naviyat, ma'rifat, badiiy asar, yoshlar, iste'dod, yuksalish.

### Аннотация

В статье раскрывается роль художественной литературы в формировании патриотизма в сердцах молодежи и в развитии национальной гордости в условиях глобализации. Также в произведениях узбекских писателей анализируется широкое распространение концепций воспитания молодежи, нравов, понимания национальной идентичности, духовности и просвещения, которые являются достоянием нации.

**Ключевые слова:** образование, ценности, традиции, духовность, просвещение, творчество, молодость, талант, развитие.

### Abstract

The article reveals the role of fiction in the formation of patriotism in the hearts of young people and in the development of national pride in the context of globalization. Also, in the works of Uzbek writers, the widespread dissemination of concepts of youth education, morals, understanding of national identity, spirituality and enlightenment, which are the heritage of the nation, is analyzed.

**Keywords:** education, values, traditions, spirituality, enlightenment, creativity, youth, talent, development

O'zbek xalqining buyuk qomusiy olimi Abu Rayxon Beruniy "Menga yoshlarni ko'rsatsangiz, mamlakatimiz ertasi qanday bo'lishini aytib beraman" deganida ming bor haq edi.

Zero, barkamol, sog'lom avlod yurt kelajagi, poydevoridir. Ma'lumki, yoshlarni vatanga muhabbat, milliy g'oya asosida tarbiyalash o'tmish ajdodlarimiz merosi, an'anasi, qadriyatiga yo'g'rilgan holda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov e'tirof etganlaridek, "Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir". Haqiqatdan ham inson ruhiyatiga, ongiga og'zaki targ'ibot-tashviqotdan ko'ra yozma manba tez va kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu borada adabiyotning, so'z san'atining o'rni beqiyosdir.

Ijodkor ahli o'z farzandining qalbida millat o'zligini anglashga, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizning mazmun-mohiyatini anglashga, yurt ozodligini barpo etish singari g'oyalarni o'z asarlari orqali yetkazishga uringanlar. Shundan ko'rinib turibdiki, adabiyot keng omma vakillariga xizmat qilib qolmay, balki yoshlar o'rtasida vatanga muhabbat, milliy g'oya shakllanishida ham munosib o'ringa ega hisoblanadi. Zero, adabiyot – har qanday vaziyatda ham, avvalo, o'z xalqi, sog'lom avlodning ma'naviy olamiini boyitish qolaversa, umuminsoniy ezgulikka da'vat etishni oliy maqsad qilib oladi. Shu sababli ham adabiyotni millat ko'zgusi deya e'tirof etish mumkin. Adabiy asarlarning milliy xususiyatlari yuksak ahamiyatga molik ekanligini Fitrat, Cho'lpon ta'kidlaganlar. Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Oybek, Shayxzodalar o'z asarlarida o'zbek xalqining milliy ruhini badiiy aks ettirishga katta ahamiyat berdilar.

O'zbek adiblari ijodiga nazar tashlar ekanmiz, milliy istiqlol dardi bilan yonib yashagan, xalqni g'aflat botqog'idan uyg'otishga, yurt ozodligi singari ezgu g'oyalarni asarlarida tarannum etgan. Abdulla Qodiriy o'sha mashhur "O'tgan kunlar" romanida yurtda hukmronlik qilayotgan mayda xonliklar, mansabparastlar, amalparastlar orqasida chor Rossiyasiga qurbon bo'lish xavfi borligini istirob bilan bayon etadi.

Cho'lpon esa o'z she'rlarida mavjud ijtimoiy tuzum kamchiliklarini, illatlarini ochiq oydin ko'rsatib beradi. Shoirning "Ko'ngil" she'rida inson erkin hayot uchun tug'ilgani, hattoki qafasdagi qush ham erkinlik sari talpinishi ta'riflaydi.

Bugungi kun adiblari asarlarida ham yuqorida zikr etilayotgan g'oyalar o'z aksini topib kelmoqda. Ayniqsa Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida ushbu g'oyalar yanada kuchliroq tasvirlanadi. Yozuvchi asaridagi voqea-xodisalar ramziy ma'noda hamda kinoyaviy uslub vositalaridan mohirona foydalana olgan. Bu esa asarning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. "Otamdan qolgan dalalar" nomining o'ziyoq Dehqonqulning otasidangina emas balki o'zbek xalqining otasidan qolgan yerlar ekanligi xitob bo'lib yangraydi. Kinoya atamasi nafaqat kulgu uyg'otuvchi vosita sifatida balki, insonning ichki nidolarini, alamli jihatlarini kinoya tarzida namoyon etadi. Bu asar qahramonlari tilidan yangraydi.

O'zbek adabiyotida o'z ovozigga, o'z uslubiga ega bo'lgan taniqli yozuvchi, dramaturg Erkin A'zam asarlarida ham kinoyaviy uslub vositalari uyg'unligida milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an'analarimiz hamda yoshlar, aholi o'rtasida Ona – Vatanga sodiq farzand bo'lish tuyg'ularini "Jannat o'zi qaydadir?" (2007) to'plamiga kiritilgan "Yozuvchi", "Aralashqo'rg'on", "Qiyofadosh", "Suv yoqalab", "Zabarjad" va "Shovqin" (2011) asarlarida mahorat bilan tasvirlaydi.

Sevimli shoirimiz Abdulla Oripovning mashhur she'ridan biri "Tilla baliqcha" ham mana shu ruh, mana shu kayfiyatda bitilganligi ko'pgina kitobxonga ayon.

Badiiy adabiyot nechog'lik san'at sanalmasin, insonga qanchalik zavq-shavq ulashmasin, u hamisha axloqiy tarbiya vositasi hisoblanadi.

Shuni ham alohida qayd etish joizki, yoshlarni badiiy adabiyotga qiziqitira olish orqali ular qalbida vatanga sadoqat, faxr tuyg'usi shakllanish barobarida turli yot g'oyalardan saqlash, ularga o'z fikr-mulohazalari orqali sobit tura olish ko'nikmasini ham yaratadi. Zero, bugungi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar "g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan kurashish"ni talab etmoqda. Bu kabi ko'nikmalarni shakllantirishda, targ'ib etishda albatta oilaning ham sezilarli darajada o'rni bor. Oila maktabi

orqali o'sib kelayotgan yosh avlod ongi, shuuri, ma'naviyatida milliy g'oya, Vatan tuyg'ularini qaror toptirish lozim. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Oila tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimni o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish ayni muddao bo'lar edi. Bu haqida gapirganda, mumtoz yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asaridagi qahramonlarning o'zaro muomala va muloqotlari, ularning hatto kichik farzandlarini ham "siz"lab gapirishi misolida ota-bobolarimizning oila ma'naviyatiga qanchalik katta e'tibor berganiga ishonch hosil qilaman". Haqiqatdan ham qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Zero, oilaga sadoqat, ota-onaga oqibat, aka-ukalarga mehrlilik Vatan tuyg'ularining debochasi hisoblanadi. Oilaga sadoqati bo'lmagan farzandlarning ota-onaga, qarindosh-urug'iga, yaqinlariga, mahallaga hurmati bo'lmagan. Shu bois ham ajdodlarimiz oila deb atalmish ulkan qo'rg'onga alohida e'tibor qaratib, milliy qadriyatlarimizni, ma'naviyatimizni yosh avlodlarga yetkazishga urungan, ularning ma'naviy kamolotiga alohida e'tibor qaratishgan. Afsuski, hozirgi vaqtda axloq normalariga to'g'ri kelmagan jihatlarni madaniyat deb bilish, asl ma'naviy qadriyatlarni eskilik sarqiti deb qarashlarning paydo bo'lishi turli yot g'oyalarning hayotimizga kirib kelishiga zamin yaratmoqda.

Bugungi kunda xalqaro maydonda ham turli siyosiy kuchlar o'zining milliy va strategik rejalariga erishish uchun "ommaviy madaniyat" niqobi ostida amalga oshirayotgan ishlarini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Zero O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlab o'tganlaridek, "... "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'rovonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobiga boylik orttirish, boshqa halqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi".

Har bir voqea-hodisaning salbiy va ijobiy tomonlari bo'lgani kabi globallashuv jarayonning ham salbiy tomonlari o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Hozirgi kundagi mafkuraviy tahdidlarning yana eng xavfli ko'rinishlaridan biri diniy ekstremizm va aqidaparastlikdir. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» asarida shunday deydi «...islom dinini niqob qilib manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar xali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanmokda».

Darxaqiqat mamlakatimizga suqulib kirib kelgan ekstremistlar, aqidaparastlar tushkunlikka tushgan, ishsiz yurgan, e'tiqodi, ma'naviy dunyoqarashi sust odamlarni tanlab olib ularni o'z domiga tortmokda. Mazkur salbiy holatlar jamiyatimiz taraqqiyoti, aholimiz tinchligi, osoyishtaligiga tahdid solmokda, ba'zi yoshlarimiz ularning domiga tortilmoqda. Ushbu tahdidlardan qutulish yo'li qanday? Avvalo yoshlarimizni ma'naviy salohiyatini shakllantirish, ular qalbida milliy istiqloq g'oyalarini singdirish, turli dinlar, ularning ta'limotlari borasidagi bilimlarini oshirib borish lozim. Bu borada yurtimiz miqyosida amalga oshirilayotgan ishlarni ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, bugungi kunda yoshlarimizni badiiy adabiyotga qiziqtirish orqali ular qalbida milliy istiqloq g'oyalarini yanada chuqurroq singdirishga erishilmoqda. Bu borada aholining, ayniqsa yoshlarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda kitobning o'rni va ahamiyatini yanada kengaytirish, yoshlarni milliy adabiyotga, Ona-Vatanga yuksak muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga

hissa qo'shish maqsadida "Adabiyotga e'tibor – kelajakka, ma'naviyatga e'tibor" shiori ostida o'tkazilayotgan "Kitobxonlar bayrami" madaniy-ma'rifiy tanlovining joriy etilishi nafaqat iqtidorli yoshlarimizni kashf etish, balki ular o'rtasida badiiy adabiyotimizga bo'lgan qiziqishini shakllantirish, bu orqali ular qalbida ezgu fazilatlarni shakllantirish, milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalashga erishiladi. Shu bois ham chinakam badiiy asar vijdonli, halol bo'lishga chaqiradi, ezgu yaxshi asar kishi ruhini yangilaydi, quvonch hadya etadi. Kishi o'z-o'zidan yaqinlarigina emas jamiki odamzotga ezgulik tilaydigan insonga aylanadi. Ezgulik mavjud joyda esa hamisha barqarorlik, taraqqiyot, farovonlik hukm suradi.

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berishga yo'naltirilgan suhbat va uchrashuvlar, ma'rifiy tadbirlar, targ'ibot-tashviqot ishlarini muntazam ravishda amalga oshirish bilan bir qatorda badiiy asarlar orqali ham targ'ib etish, singdirish ijobiy natijalarni yuzaga chiqaradi.

Yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarda «Buyuk allomalar hayoti va ijodiy faoliyati vatanparvarlik tarbiyasida ibrat manbai» mavzusi doirasida turkum davra suhbatlarini uyushtirish, targ'ib etish hamda adiblar, shoirlar bilan hamkorlikda olib borish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, yosh avlodga zamonaviy talablar asosida bilim berish, ularda Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashda ajdodlarimiz meroslaridan, badiiy adabiyotdan keng foylanish, targ'ibot-tashviqot ishlarida ko'rgazmali vositalar, multimediyalardan keng foydalanish hamda soha mutaxassislarining jalb etgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, kishining kimligini u o'qigan kitoblarga qarab aniqlash mumkin bo'lganidek har bir xalq har bir millatning madaniyat darajasi, ma'naviy boyligi sanalmish kitoblar bilan ham bog'liq. Shu ma'noda bugungi kun yoshlari qalbida badiiy asarlarga umuman, kitoblarga bo'lgan mehrini yanada oshirishda nafaqat pedagoglarning qolaversa, oilaviy muhitning ham ta'siri katta..

#### **Foydalingan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ibrohimovich A. H. MODERN FACTORS FOR RAISING STUDENT-YOUTH INNOVATIVE THINKING IN THE HIGHER EDUCATION //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2023. – T. 15. – C. 202-206.
2. Абдурахмонов Х. И. ҲОЗИРГИ ДАВРДА ЁШЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ПОТЕНЦИАЛИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МОДЕЛЛАРИ //Tafakkur manzili. – 2023. – T. 4. – C. 23-29.
3. Abdurahmonov H. I. CHARACTERISTICS OF FORMATION OF INNOVATIVE THINKING IN SOCIETY //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – T. 2. – №. 7. – C. 161-167.
4. Ibroximovich A. K. INNOVATIVE THINKING AND ITS FORMS AND TYPES OF MANIFESTATIONS. European Scholar Journal, 3 (5), 38-41 [Электронный ресурс].
5. Anvarovich P. A. et al. SUN'IY INTELEKKTNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI, FOYDALI VA ZARARLI JIHATLARI //PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOY TADQIQOTLAR| JOURNAL OF PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND SOCIAL RESEARCH. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 7-13.

6. Anvarovich P. A. et al. SUN'IY INTELEKKTNING KUNDALIK HAYOTIMIZGA TA'SIRI, BIZ UCHUN BU HODISA IJOBOYMI? //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2024. – T. 4. – №. 2. – C. 9-13.
7. Ibroximovich A. X. et al. "O 'ZBEKISTON-2030" STRATEGIYASINING AMALIYOTDA JORIY QILINISHI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2024. – T. 4. – №. 1. – C. 58-64.
8. Kenjaboy o'g O. R. et al. SOHIBQIRON AMIR TEMUR HARBIY BOSHQARUV TIZIMI TARIXSHUNOSLIGI //SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2024. – T. 7. – №. 2. – C. 131-136
9. Boltayeva, B. (2023). DEVELOPMENT OF COMPETENCIES FOR SELF-STUDY OF STUDENTS IN A CREDIT-MODULAR SYSTEM AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. Science and innovation, 2(B8), 39-42.
10. Boltaboyeva, B. (2023). KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNI MUSTAQIL BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(3), 40-42.
11. Болтаева, Б. Х., & Абдукодилов, П. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА. ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, 5(2).
12. Болтаева, Б. Х., Султонова, Л. Б., & Юсупова, Н. О. ВЕБ-КВЕСТ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ИНФОРМАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ WEB QUEST IS A DEVELOPMENT OF INFORMATIONAL SOURCE IN TECHNOLOGY. ВВС 94 Z 40, 152.
13. Хашимова, Г. Ф., & Султанова, Л. Б. (2022). НАМКORLIK PEDAGOGIKASI ASOSIDAGI INTERFAOL METODLARNING SAMARADORLIGI. ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, 5(2).
14. Хусанова, К., Султанова, Л., Хусанбаева, Ю. и Абдурахимова, Д. (2020). «Средний возраст» как лучшее время человеческой жизни. Международный журнал психосоциальной реабилитации, 24 (2), 332-337.
15. Хашимова, Г. Ф., & Султанова, Л. Б. (2021). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ СФЕРЫ В РАМКАХ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ. ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, (SI-1).
16. Болтаева, Б. Х., Султанова Л. Б. ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДА ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ. Збиор артыкулов наукович рецензованич. , 186.